

Ноам Хомскийдің трансформациялық генеративлік теориясында сәуленген.

Улыўма жуўмақтастырып айтканда, америка дескриптив лингвистикасының көрнекли ўақиллериниң бири – З.Харристин изертлеўлери тил билими тарийхында белгили орынға ийе, оның мийнетлери

дўнья тилшилери тәрпинен тән алынған. Ол лингвистикалық изертлеўдиң тийкаргы бирлиги морфема болып табылады, ал тилдиң грамматикалық қурылысы морфемалардың оппозициясынан ибарат деп есапланды.

Әдебиятлар

1. Harris Z.S. Methods in structural linguistics. – N.Y.: 1951. Vol. -P. 165-184.
2. Harris Z.S. Co-occurrence and transformation in linguistic structure. // Language. Baltimore, 1957. Vol.33, N 3. – P.283-340.
3. Harris Z.S. From morpheme to utterance // Language. – Baltimore, 1946. – Vol.22, №3. –P.172-193.
4. Harris Z.S. Structural linguistics. – Chicago: 1961. –P. 384.
5. Harris Z.S. Discontinuous morphemes // Language. – Baltimore, 1945. – Vol.21, №3. – P.123-147.
6. Harris Z.S. Methods in structural linguistics. – N.Y.: 1951. Vol. – P. 185.
7. Bloomfield L. Language. New York: Holt and Co., 1933. –P. 207.
8. Hockett Ch. Problems of morphemic analysis. // Language. Vol. 23. 1947. –P. 331.
9. Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. – Москва: 1959. –С. 116.
10. Harris Z.S. From morpheme to utterance // Language. Vol.22, 1946. –P.163.
11. Harris Z.S. From morpheme to utterance // Language. Vol.22, 1946. –P.165.
12. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М.: 1966. –С.302; Арутюнова Н.Д., Кубрякова Е.С. Проблемы морфологии в трудах американских дескриптивистов. // Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике. –М.: 1961. –С.123-215; Арутюнова Н.Д., Климов Г.А., Кубрякова Е.С. Американский структурализм // Основные направления структурализма. –М.: 1964. –С.177-306; Ахманова О.С., Микаэлян Г.Б. Современные синтаксические теории. – М.: 1963. –С.237; Белый В.В. Американская дескриптивная лингвистика // Философские основы зарубежных направлений в языкознании. –М.: 1977. –С.170-198; Клименко О.К. Зеллиг Харрис. // Американские лингвисты XX века, 2001. –С. 127-150.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақола америка тилшунослигининг атоқли вақиллариниң бири Зеллиг Саббатей Харриснинг умри ва илмий тадқиқотларини аниқлашға бағишланған. Харриснинг дескриптив лингвистикани ривожлантиришдағи ўрни кўрсатилған. Муаллифнинг илмий таҳлил методларини такомиллаштиришға қўшқан ҳиссаси, дистрибуция ва субституция, дискусс таҳлил методлари, морфологик таҳлилнинг уч босқичи, морфема назарияси ҳақида фикрлари берилған.

РЕЗЮМЕ. В данной статье изучен жизнь и научные заслуги Зеллига Саббатей Харриса, одного из видных представителей американского языкознания. Показана роль Харриса в развитии дескриптивной лингвистики. Определено вклад автора в совершенствовании методов научного анализа, дистрибутивные, субститутивные методы, метод дискуссивного анализа, трех-фазовый морфологического анализа и представлений о теории морфем.

SUMMARY. This article examines the life and scientific achievements of Zellig Sabbateia Harris, one of the prominent representatives of American linguistics. The role of Harris in the development of descriptive linguistics is shown. The contribution of the author to the improvement of the methods of scientific analysis, distributive, substituent methods, the method of discussive analysis, three-phase morphological analysis and ideas about the theory of morphemes is determined.

TARMOQ TILI VA UNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

K.K.Ahmedova – tayanch doktorant

Urganch davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: internet tili, neologizm, leksika, globalizatsiya, ogʻzaki muloqot, chat yozishmalari.

Ключевые слова: язык интернета, неологизм, лексика, глобализация, устное общение, чат-переписка.

Key words: Internet language, neologism, lexicon, globalization, oral communication, chat correspondence.

Kirish. Taniqli Britaniyalik tilshunos olim Devid Kristal oʻz ilmiy faoliyati mobaynida 2001-2006-yillarda internet tili bilan bogʻliq muammolar toʻgʻrisida yozdi, shuning uchun ham uni yangi tadqiqot sohasi asoschisi desak mubohlagʻa boʻlmaydi. Xususan uning “Til va Internet”, “Til inqilobi” kabi kitoblari tilshunoslikning ushbu nisbatan yangi boʻlgan yoʻnalishida tub burilish yasadi. Bugungi kunda kompyuter lingvistikasi yoki tarmoq tili bilan shugʻullanib kelayotgan izlanuvchilar uchun uning kitoblari muhim asos boʻlib xizmat qiladi. Kristal tarmoq tilining lingvistik jihatiga oʻz eʼtiborini qaratgan hamda bu borada leksika, neologizm, qisqartmalar, tinish belgilariga alohida toʻxtalib oʻtgan. U internet tilining asosiy hisoblangan elektron pochta, chat guruhlar, bloglar, tezkor xabar almashish kabi aloqa-munosabat shakllarini farqlagan [1]. Tilshunos olimning taʼkidlashicha global tarmoq tilini oʻrganish borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar hali ham dastlabki bosqichlardadir. Taniqli tilshunoslardan yana biri Denis Baron tarmoq tilining eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblangan tezkor xabar almashishning bir qancha usullaridan abbreviaturalar, akronimlar, tinish belgilari hamda emotikonlar yaʼni klaviaturadagi obrazlarning turli kombinatsiyalaridan shakllangan yuz ifodasi aksi, jumladan, tabassum qilayotgan yoki xoʻmrayayotgan yuz ifodalari kabilarni tadqiq qilgan. Boshqa koʻplab tilshunolar ham yuqorida keltirib oʻtilgan aloqa-munosabat usullarining bir qanchalarini sanab, ularga tasnif, misollar keltirib oʻtishgan. Abbreviaturalar ham oʻz oʻrnida bir qancha turlarga ajratilib oʻrganilmoqda, jumladan, akronimlar yaʼni uzunroq soʻz yoki iboralarning bosh harflar jamlanmasi (RADAR [ing. radar (radio defecting and ranging soʻzlaridan)] – radiotoʻlqinlar yordamida obyektini aniqlash

va ungacha masofani oʻlchash] – radiolokatorni belgilash uchun ommabop adabiyotlarda ishlatiladigan termin). Initsializmlar ham abbreviaturalarning bir koʻrinishi boʻlib, xuddi akronimlarga oʻxshasada, ikkalasi aynan bir xil emas. Initsializmlar ham ibora yoki birikma tarkibidagi har bir soʻzning bosh harflari jamlanmasi hisoblangan, akronimlardan farqli ravishda initsializmlarda har bir harf alohida talaffuz qilinadi (VIP [ing. very important person soʻzlaridan] – mashhur yoki davlatmand shaxs). Abbreviaturalarning yana bir guruhi (clippings) qirgʻilgan soʻzlardir. Bular mavjud soʻzga maʼnodosh soʻz yasash uchun ushbu soʻzning maʼlum bir qismlarini qirgʻib olish orqali yasaladi (“photograph” soʻzidan “photo”, “advertisement” soʻzidan “advert” yoki “ad”). Blend yaʼni aralash soʻzlar ikki yoki undan ortiq soʻzlarning maʼlum bir qismlari tushirib qoldirilgan yoki qisqartirilgan holda aralashib yasalgan soʻzlardir (brunch yaʼni inglizcha breakfast va lunch soʻzlarining aralashgan holda yasalgan shakli boʻlib tushlik vaqtiga yaqinroq qilingan nonushtani ifodalaydi).

Metodlar. Onlayn muloqot davomida suhbat ishtirokchilari iloji boricha tezkor xabar almashishga harakat qilishadi. Bu esa oʻz navbatida ularga qisqa xabarlar joʻnatish zaruriyatini yuklaydi. Oʻzlarining bunday muloqot ehtiyojini toʻlaqonli qondirish uchun foydalanuvchilar oʻz (yozma) nutqlarida yuqorida keltirilgan bir qancha qisqartmalardan foydalanadilar. Shuning uchun ham tarmoq yozishmalari tahlil qilinsa 3 yoki 4 qatordan iborat matnlar deyarli uchramaydi va aksincha, soʻzlarning qisqartma shakllaridan keng foydalaniladi. Yozishmalar ishtirokchilarning muloqot vaziyati, yoshi, irqi, dini, millati, jinsi kabi boshqa bir qator omillarga bogʻliq ravishda ham farqlanadi. Ishtirokchilar oʻz xohishlariga yoki boshqa

ikkilamchi omillarga qarab standart yoki nostandart til birliklaridan foydalanishlari mumkin. Quyida global tarmoqda keng tarqalgan bir qancha abbreviaturalarni ko'rib chiqamiz:

Str8	Straight
Sun	Sunday
Thn	Than
Tho	Though
Thro	Through
Thx	Thanks
Tmw	Tomorrow
U	You
Wanna	Want to
Wh	What
Xoxo	Hugs & kisses
Y	Why
Yr	Year
Zzzz	Sleeping
Xp	Experience

Ingliz tili umumjahon global tarmoq tili sanaladi. Internet kundalik hayotimizga qanchalik tezkorlik bilan kirib kelar ekan o'zi bilan birga ingliz tilini ham olib keladi. Bugungi kunda dunyoning elektron ma'lumotlar bazasining 80 % qismi ingliz tilida. Bundan ko'rinib turibdiki, biz xohlasak ham, xohlamasak ham ushbu xorijiy tilda eng keng tarqalgan, kundalik iste'molga allaqachon kirib ulgurgan so'zlar, qisqartmalar yoki iboralarni bilish zamon talabiga aylanib bormoqda. Dunyoning deyarli to'rtidan bir qismi ingliz tilida gapiradi. Nafaqat internet balki jamiyatdagi boshqa sohalar, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, havo yo'llari kabilar ham ushbu til bilan chambarchas bog'liq, chunki qilinayotgan ixtirolar, kashfiyotlar, yangiliklar avvalambor ushbu tilda ommaga taqdim qilinadi. Ingliz tilining keng tarqalishi bilan globalizatsiya jarayoni ham keng quloch yozmoqda. Ko'plab davlatlarda ingliz tili ikkinchi chet tili sifatida o'rganiladi. Bu tildan umuman xabarsiz inson ham hozirgi raqamli texnologiyalar asriga kelib ingliz tilida ommabop bo'lgan bir qancha so'zlarni biladi. Bu til tarmoq tili sifatida nutqimizga shunchalik tezlik bilan kirib kelyaptiki, nafaqat yozma onlayn muloqot chog'ida balki, og'zaki nutqimizda ham turli xil qisqartma so'zlardan keng foydalanayapmiz.

Natijalar. Tarmoq yozishmalarida nafaqat nostandart akronimlar balki, standart akronimlardan ham foydalaniladi. Biroq ularning qo'llanilish soni nisbatan kamroq uchraydi. Misol uchun, *US* "United States", *UK* "United Kingdom", *BBC* "British Broadcasting Corporation", *HIV* "human immunodeficiency virus" kabi standart akronimlar *Ct* "Can't talk", *Dk* "Don't know", *Em* "excuse me", *Gt* "good try", *Ik* "I know", *Yw* "You're welcome" kabi nostandart akronimlarga qaraganda nutqda nisbatan kamroq uchraydi.

Akronimlar biror kompaniya yoki tashkilot nomlanganida guruh nomining bosh harflari orqali uni atashda keng foydalanilmoqda. Ko'pchilik akronimlar deganda yangilikni tushunadi, lekin biz uning o'tmishiga nazar tashlasak bundan 150 ming yillar ilgari borib taqalishiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda akronimlardan foydalanish bir qancha sohalarida ham o'sishga olib keldi. Matiello, Niderst kabi tilshunoslar akronimlarni abbreviaturaning bir turi deb bilsa, Kurdi, Kristal kabilar esa uni initsializmning bir ko'rinishi sifatida baholashadi.

Adabiyotlar

1. Crystal D. (2001). Language and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Hudson G. (2000). Essential Introductory Linguistics. Oxford: Blackwell.
3. The Oxford Dictionary of New Words (1997). Oxford: Oxford University Press.

REZYUME. Ushbu maqolada bugungi kunda ancha keng rivojlanib, o'rganilib kelinayotgan Internet tili va unga xos bo'lgan lingvistik xususiyatlar tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется язык Интернета, который сегодня широко развивается и изучается, и его лингвистические особенности.

SUMMARY. This article analyzes the language of the Internet, which is widely developed and studied today, and its linguistic features.

Bir qancha qisqartmalar tovush va harf mutanosibligidan hosil bo'lgan. Misol uchun, "m8" (mate), "b4" (before), "l8r" (later), "1n" (one), "ilu2" (I love you too). Tilning nostandart qatlamiga xos bunday ifodalar aholining yosh qatlami orasida deyarli hech qanday tushunmovchiliklarsiz qabul qilinsa, kattaroq kishilar uchun bu vaziyatni anglash murakkablik tug'dirishi mumkin.

Quyida biz internet chat guruhlaridan olingan bir qancha yozishmalardan misollar keltirib o'tamiz:

- is Dre [there] any girl wanna [want to] chat personal-ly
- my fav [favourite] is cottage cheese freshly made
- don't block me pls. [please]
- I'll try and be a cowgirl tmw [tomorrow]
- loyalty yes we wld [would]
- baby come bck [back]
- yes dr [dear]
- msg [message] me on my id.
- c u [see you] leave
- ims [I'm sorry]
- I'll tell them to get in, sit down and sht up [shut up]
- I love my GF [girlfriend] Lilly so much more than anything.

Muhokama. Mashhur tilshunos Hyudson Grover ta'kidlab o'tganidek tildagi o'zgarishlar yangi ma'nolarning ifodalanishi orqali ham sodir bo'ladi. Jamiyatda sodir bo'layotgan yangiliklar, o'zgarishlar bilan birgalikda tillarda ham doimiy ravishda yangi ma'no ifodalovchi birliklarga nisbatan ehtiyoj ham ortib boradi. Shuning uchun ham Hyudson til o'zi to'qnash kelayotgan yangi narsalar, voqea-hodisalar, g'oyalar va fikrlarni ifodalovchi yangidan-yangi birikmalarni qabul qilib olish xususiyatiga ega [2]. Bugungi kunga kelib esa bunday yangiliklarning ko'pchiligi global tarmoq bilan yaqindan bog'liq. Chunki jamiyatda sodir bo'layotgan har qanday voqealar, yaratilayotgan yangi kashfiyotlar avvalambor global tarmoqda keng targ'ib qilinadi va shu orqali omma e'tiboriga havola qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki targ'ib qilinayotgan mahsulot yoki voqea-hodisa bilan birgalikda internet tarmog'i ham faol harakatda bo'lib bu esa o'z navbatida internet foydalanuvchilarining sonini oshishiga shuningdek, global tarmoqni yanada rivojlanib, imkoniyatlar doirasini kengaytirishga zaruratini oshiradi. Internet kundalik hayotimizga juda katta tezlik bilan kirib kelmoqda va yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek uning ta'siri hayotimizning ko'plab jabhalarida sezilarli o'rin egallamoqda. Xususan, og'zaki muloqot jarayonida ham tarmoqqa xos bir qancha so'z, ibora yoki qisqartmalarni ham guvohi bo'lishimiz mumkin:

- e-pal
- e-bike
- e-book
- e-card
- e-business
- e-commerce

Tildagi bunday o'zgarishlar uning yanada boyishiga olib keladi. Lekin biz bu o'zgarishlar tilda mutlaqo saqlanib qolishi yoki yana o'zgarish kiritilishi haqida oldindan hech nima deymaymiz. Hattoki, yangi kirib kelayotgan so'zlarning ham umri qisqa bo'lishi mumkin. Shuni aniq ayta olamizki, global tarmoq kun sayin rivojlanmoqda va bu bilan insonlarning hayotiga ham turlicha yangiliklar, o'zgarishlar kiritmoqda.